



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xujabekova Zarnigor

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti, Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti, O‘zbek tili yo‘nalishi magistri

O‘ZBEK TILIDA KELISHIKLAR KATEGORIYASINI O‘QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelishik kategoriyasini o‘qitishda grafik organayzerlardan, interfaol metodlardan foydalanish, ularning samarasini kabilalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Grafik organayzer, metod, usul, kelishik, kategoriya, B/B/B, “Klaster”, “Matnli topshiriq” metodlari.

Kirish. Har qanday zamonaviy pedagog o‘quvchi – yoshlarga tez, sifatli va bir umrlik bilim berishni va olgan bilimlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Bunda, albatta, zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, berilgan bilim, ko‘nikma bir kun yoki bir yildan keyin o‘z natijasini beradi. Berilgan ta’lim – tarbiya tezda o‘z aksini ko‘rsatmasligi mumkin, lekin olingan bilim yillar davomida o‘quvchi ong ostida saqlanadi, kerakli o‘rinda nutqda voqelanadi. Bunda zamonaviy ta’lim metodlari bizga yaqindan yordam beradi. “Grafik organayzer” – o‘zining tasvirli ko‘rinishiga ega bo‘lgan interfaol metodlar guruhi. Biz o‘rganayotgan kelishik kategoriysi maktab darsliklarida boshlang‘ich sinfdan boshlab, yuqori sinf (7-sinf ona tili) darsliklarida to‘liq keltirib o‘tilgan. Kelishik kategoriyasini o‘qitish jarayonida biz ma’lumotlarni tarkiblash va tarkibiy bo‘lib chiqish usul va vositalardan foydalanamiz. Bunday usullarga

“Klaster”, “Toifalash jadvali”, “B/B/B jadvali” kabilarni kiritishimiz mumkin. Nazariy shaklda berilgan axborot 10 foiz o‘quvchi (bunda ham eng faol o‘quvchilar uchungina) tushunarli bo‘ladi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish auditoriyani butunligicha qamrab olish va o‘quvchini mustaqil fikrlarini asoslab olishiga imkoniyat yaratib beradi. Darsning turli qismlarida mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, takrorlash kabi o‘rinlarda turli metodlardan foydalanish mumkin. Aynan kelishik kategoriyasini o‘quvchilar qay tarzda tushunganliklarini aniqlash maqsadida biz “Nima uchun?”, “Piramida”, “Kaskad” sxemalaridan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi.

Asosiy qism. Kelishik shakllari ot va otlashgan so‘zlarni o‘zidan keyin kelgan so‘zlarga yoki fe’lga tobe bog‘lash uchun xizmat qiladi. “Ot, olmosh va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi”¹ Bu kabi ma’lumotlar o‘quvchida zerikish uyg‘otishi aniq, shuning uchun bu mavzuni quyidagicha tushuntirish mumkin.

Ot/olmosh/otlashgan so‘z + kelishik shakli + Ot/otlashgan so‘z/fe’l

M: Mavzuni kitobdan o‘qidim.

Ma’lum grafik yoki formula shaklidagi ma’lumotlar bolalar ongida tez va uzoq muddat saqlanib qolishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mavzuni tushuntirish jarayonida yuqoridagi “formula” asosida so‘z birikmasi yoki gap kabi sintaktik birliklarini tuzish topshirig‘i o‘quvchini dars jarayonidagi qisqa fursatda mavzuni qay darajada tushungan, tushunmaganligini ko‘rsatib beradi. Bunda, albatta, o‘quvchi kelishiklar haqida boshlang‘ich tushunchaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi. O‘zbek tilida 6 ta kelishik shakli mayjud ekanligi barchamizga ma’lum. Bu mavzuni o‘qitishda asosan, matnli gaplar va ular tarkibidan kelishiklar kategoriyasini aniqlash kabi topshiriqlar berish dars samaradorligini oshiradi. Bunda “Matnli topshiriq” ni bajarish uchun kerak bo‘ladigan matnni adabiyot darsliklaridan olish o‘quvchida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Quyida biz shunday “Matnli topshiriq”ni bajarib ko‘ramiz. “Xurosandan Samarqand-u Buxoroga qatnaydiganlarga bu yerning fe’li juda ma’lum, ammo eng yaqin yo‘l shu bo‘lganligi tufayli yo Karki, yo Xalachga bormaslik va Jayhundan o‘tmaslikning iloji yo‘q... Me’morning xayolini olib qochdi. ...uning ko‘z oldida girvat-u bo‘ron kashf etgan mislsiz bir qasr turardi”.² Matndagi kelishik shakllari ishtirok etgan so‘zlarni jadvalga joylab olamiz.

Kelishiklar	Kelishik affikslari	Kelishik shakllari ishtirok etgan so‘z	Kelishik shakllari bog‘langan so‘z	Kelishik shakllari anglatgan ma’no
Bosh kelishik	-			
Qaratqich	-ning	1)bu yerning 2)o‘tmaslikning	fe’li iloji yo‘q	qarashlilik
Jo‘nalish	-ga (-ka, -qa, -na, -)	1)Buxoroga 2) Xalachga	qatnaydiganlarga bormaslik(ning)	yo‘nalish

¹Mahmudov N., Nurmonov ., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili (umumiyl o‘rtalim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.:Ma’naviyat, 2017.-160b.

² Q.Yo‘doshev., B.Qosimov., J.Yo‘doshbekov. Adabiyot: Umumiyl orta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 4-nashri –T.: Sharq,2017.-69 b

	a)			
Tushum	-ni (-ti/-di)	Xayolini	olib qochdi	umuman, batamom/butun
Chiqish	-dan	Xurosondan	qatnaydiganlarga	harakatning chiqish/boshlanish nuqtasi
O‘rin-payt	-da	ko‘z oldida	turardi	harakatning o‘rni

Bu metod bevosita o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Matn tarkibida aralash holda kelgan kelishiklar ta’lim oluvchini bitta qolipga tushib qolmasligi uchun ham ko‘mak beradi. “matnli topshiriq” metodi orqali bir vaqtning o‘zida ham amaliy, ham nazariy topshiriqni bajarish, bajarilgan vazifani o‘quvchi og‘zaki bayon etishi natijasida uning nutq savodxonligi ham sezilarli darajada o‘sadi.

Xulosa. Ta’limda zamonaviy metodik texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi. Shunga muvofiq pedagogik kadr zamon bilan hamnafas tarzda fanga oid ijobiy yangilikka intilishi shart. Bugungi kun o‘quvchisi ma’nana yetuk bo‘lishi avvalo, bizga bog‘liq. Buning uchun doim harakatdan to‘xtamasligimiz lozim. Maktab darsliklarida kelishik kategoriyasini tushuntirishda zamonaviy metodlardan foydalanish bilan bir qatorda kelishiklarning tarixiy taraqqiyotiga ham e’tibor qaratilsa, o‘ylaymizki, o‘quvchi-yoshlar badiiy tarixiy matn qarshisida tahlilga qiynalib qolishmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili (umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.:Ma’naviyat, 2017.-160b.
2. Q.Yo‘doshev., B.Qosimov., J.Yo‘doshbekov. Adabiyot: Umumiy orta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 4-nashri –T.: Sharq,2017.-69 b
3. Baxranovna, M. R. (2022). International System Assessment of Reading Literacy of Primary School Pupils Pirls. International Journal of Culture and Modernity, 14, 35-38.
4. Raximqulova, M. (2021). TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV-O’QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 118-121.
5. Jamilovna, N. D. (2021). SINF RAHBARINING KOMPETENTLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 2(4), 118-125.